

**KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARIDA KO'RGAZMALI-OBRAZLI
TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Shukurova Gulnoz Muhammadovna****Zarmed universitetining "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi****+99891-408-03-47****Shukurovagulnoz78@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331890>**

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshi o'quvchilarida ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ma'lumki jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg'or bo'ladi. Davlatlarning tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo'lgan e'tibor muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: tafakkur, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, ijodkorlik, sezgi, qiziquvchanlik, intellektuai faollik, psixologik rivojlanish, qobiliyat, motivatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития наглядно-образного мышления у учащихся младших классов. Известно, что благополучие общества во многом определяется его интеллектуальными возможностями. Потому что страна с высокоразвитым научным потенциалом всегда будет передовой во всех областях. Внимание к молодежи играет важную роль в историческом развитии государств.

Ключевые слова: мышление, наглядно-образное мышление, креативность, интуиция, любознательность, интеллектуальная деятельность, психическое развитие, способности, мотивация.

Abstract: The article discusses the specific features of the development of visual and figurative thinking in primary school students. It is known that the prosperity of a society is largely determined by its intellectual capabilities. Because a country with a highly developed scientific potential will always be progressive in all areas. Attention to youth plays an important role in the historical development of states.

Keywords: thinking, visual-figurative thinking, creativity, intuition, curiosity, intellectual activity, psychological development, ability, motivation.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatiami biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bivosita tafakkur muhim rol o'ynaydi. Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib

ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi. O'quvchi va talaba yoshlar turmushda va dars jarayonida analiz yordami bilan ko'pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni yechadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalami inson tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof - olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi kichik maktab yoshidagi o'quvchi tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J. Piagetning ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab kichik maktab yoshidagi o'quvchi endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofda qilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning kichik maktab yoshidagi o'quvchilik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtayi nazaridan ham, pedagogik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni bu yosh oralig'i 5-8 sinfga to'g'ri keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'quvchilarning ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda kichik maktab yoshidagi o'quvchilik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo'lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Biz doimo so'zlar orqali fikr yuritamiz. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo'lgan yashirin, tovushsiz, ichki

nutq insonning tafakkur mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Nutq tafakkur qurolidir. Ma'lum fikr so'zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so'z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo'lgan murakkab jarayon. O'quv jarayonida hosil qilingan bilimlardan tashqari o'quvchi shaxsini shakllantirishga o'quv faoliyatining o'zi xam ta'sir ko'rsatadi, chunki bu faoliyatni o'zlashtirish va amalga oshirish xam psixikaning muayyan darajada rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. O'quv faoliyati jarayonida o'quvchi o'qituvchi rahbarligida o'quv faoliyatining barcha komponentlarini egallab oladi. Bu o'quvchining o'quv sub'ekti sifatida qaror topishiga shart-sharoit yaratadi. O'quvchi yoshlarning o'qishga munosabati ularning qiziqishlarida, motiv va motivatsiyalarida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ana shu boisdan o'quv motivlari va motivatsiyalarini tadqiqot qilish bo'lganligi uchun dolzarb muammoga aylanib qoldi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimini yuksak darajaga ko'tarish uchun o'quvchilarda anglanilgan, yuqori ko'rsatkichli, indikator xususiyatli o'quv motivini shakllantirish davr talabidir. Zero, faoliyat va xulq-atvor motivsiz, motivatsiyasiz faollikka, muayyan yo'nalishga, o'ziga xos mahsuldorlikka, muvaffaqiyatga ega bo'lmaydi. Shuning uchun turli yoshdagi saboq oluvchilarni motiv, motivatsiya mohiyati bilan tanishtirish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zaruriy sharti hisoblanadi. Bizningcha, o'quv faoliyatining faolliqi, ijodiyliqi, nostandartliqi, samaradorliqi, bilimlarning puxtaligi, mantiqiyliqi, izchilligi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning motiv va motivatsiya bilan qurollanganligiga bog'liq, ular qanchalik anglanilgan, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, mazkur faoliyat shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshadi, ularni tatbiq etish osonroq kechadi. Shaxsning faoliyati, xatti-harakati, xulq-atvori muvaffaqiyati ko'p jihatdan yo'naltirilganligiga bog'liq. O'quv faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlash uchun psixotreninglardan foydalanish maqsadga muvofiq.